



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



SAMARQAND SHAHRIDA QORASHAQSHAQNING UYALASH BIOLOGIYASI

Otabekova A.J.

Samarqand davlat universiteti
azizaotabekova2001@gmail.com

Mamashukurov A.U.

Samarqand davlat universiteti
labdunabimamashukurov@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada Samarqand shahri sharoitida qorashaqshaqning (*Turdus merula L.*) uyalash biologiyasining tahlil qilingan. 2025-2026 yillardagi kuzatuvlar asosida qorashaqshaqning geografik tarqalishi, yashash joylari, uya qurishi, uyalarning parametrlari, tuxum qo'yishi, tuxumlarining o'lchamlari va katta yoshdagi qushlar tomonidan tuxumlarini bosib yotish jadalligi hamda polaponlarining postembrional rivojlanishi va ularning o'sish dinamikasi keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *geografik tarqalishi, biotoplari, uya qurishi, uya shakli, uya o'lchamlari, tuxumlari, polaponlarning rivojlanishi, oziqlanishi.*

Annotation. *The article analyzes the nesting biology of the blackbird (*Turdus merula L.*) in the conditions of the city of Samarkand. Based on observations in 2025–2026, the geographic distribution of the blackbird, its habitat, nest construction, nest parameters, egg laying, egg size, and the intensity of egg covering by adult birds, as well as the postembryonic development of chicks and their growth dynamics are presented.*

Keywords: *geographical distribution, biotopes, nest construction, nest shape, nest size, eggs, development of young, nutrition.*

Sayroqi qushlar shahar ekotizimida bioindikatorlik vazifasini o'tab, istirohat bog'laridagi ekologik muvozanatni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ularning bog'lardagi mavjudligi daraxt va butalarga zarar yetkazuvchi fitofag hasharotlar populyatsiyasini tabiiy nazorat qilish imkonini beradi, bu esa yashil maydonlarning fitosanitar holatini yaxshilaydi. Ilmiy nuqtai nazardan, qushlarning xilma-xilligi istirohat bog'lari ekotizimining barqarorligi va undagi ozuqa zanjirining mukammalligidan dalolat beruvchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Qorashaqshaq ana shunday sayroqi qushlardan bo'lib, istirohat bog'larida biologiyasini o'rganish, ularni bu yerlarga jalb etish, muhofaza choralari ishlab chiqish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqola uchun materiallar 2025-2026 yillarda Samarqand shahridagi Universitet xiyoboni va uning atroflaridan to'plandi. Izlanishlar G.A.Novikov [4] tomonidan tavsiya etilgan yer usti umurtqali hayvonlarning ekologiyasini o'rganish usullari asosida olib borildi.

Qorashaqshaqning tarqalish areali butun G'arbiy Yevropa, Sardiniya, Sisiliya, Korsika, Krit orollari, Kichik Osiyo, O'rta Osiyo va Shimoliy Eronni egallaydi. Yevropada shimolga





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



tomon Gollandiyagacha, Angliyada, Germaniyada uchraydi. MDH da Qorashaqshaq g'arbiy chegaradan boshlab Ural tog'larigacha, Kavkazda, Janubiy Turkmaniston tog'larigacha keng tarqalgan. Hozirgi kunda Zarafshon vodiysida qorashaqshaq hamma joyda tarqalgan. Uni yirik shaharlarda ham, kichik tuman markazlarida ham tez-tez uchratish mumkin [1, 5].

Qorashaqshaqlar tog' o'rmonlarida odatdagi uyalovchi qushdir. Qishda tog'lardan tekislik mintaqalariga tushadi. O'zbekistonda qorashaqshaqning Turdus merula intermedia (Richmond, 1896) kenja turi uyalaydi [3].

Qorashaqshaqlarning soni yashash joylari maydonining kattaligiga bog'liq bo'ladi. Uyalash davrida alohida-alohida bo'lib yashaydi va hech qachon katta galalar hosil qilmaydi. Biz kuzatishlar olib borgan joylarda uya qurgan juftlar orasidagi masofa 800-900 metrni tashkil etdi. Uyalovchi qushlarning zichligi yashash muhitining xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Bizning kuzatishlarimizga ko'ra, qorashaqshaqning sevimli uyalash biotopi bo'lib, baland bo'yli daraxtlar va kamdan-kam hollarda past bo'yli butalar hisoblanadi. Biz kuzatish olib borgan uyalardan biri Samarqand davlat universiteti Biokimyoy instituti hovlisidagi mayda bargli shamshod (*Buxus microphylla*) butasida yerdan 127 sm balandlikda, xiyobonning janubiy chekkasida shumtol daraxtida yerdan 7,5 metr balandlikda joylashgan edi.

Qorashaqshaqlar ancha erta aprel oyining boshlaridan uya qurishga kirishadi. Juftlashib olgandan so'ng ular uya qurishga kirishadi. Uyalarini ikkala jins birgalashib quradi. Bitta uyani qurish uchun 4 kun atrofida vaqt sarflanadi. Zarafshon vodiysida qorashaqshaq uya qurishga mart-aprel oylarida kirishadi. Ba'zi adabiyotlarda ularning ancha erta - fevral oyining oxirlarida uya qurishga kirishishi to'g'risida ma'lumotlar ham bor [5]. Uya hududi tanlab olingandan so'ng o'ziga xos uchishlar va sayrash orqali hudud egalangan ekanligi bildiriladi. So'ngra erkak qorashaqshaq bo'lajak uyani qurish uchun joy tanlaydi.

Uya joylarini tanlash va uni qurishda ikkala jinslar birgalikda ishtirok etadi. Uya qurishning boshlanishi aprelning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Ushbu jarayonning davomiyligi ob-havo sharoitiga va hududdagi bezovtalanish omiliga bog'liq holda bir necha kun davom etishi mumkin. Har yili yangi uya quradi va u 5-6 kunda tayyor bo'ladi. Bu vaqtda qushlardan biri hamma vaqt uya atrofida bo'lib, uni qo'riqlaydi. Biror xavfni sezgach xavf-xatar ovozi berib atrofda bezovtalanib sayrab uchadi. Uyalarining o'rtacha o'lchamlari quyidagicha: tashqi diametri – 18,3, ichki diametri – 14,7 sm, uya lotogining chuqurligi – 6,2, uyaning balandligi – 11,5, yerdan balandligi – 3,68 m.

Uya materiallari bo'lib o'tlarning qurigan qismlari, bir yillik yovvoyi g'alladoshlarning vegetativ qismlari, tol va terak barglari, ko'p yillik o'simliklarning lub tolalari, ildiz qoldiqlari, akasiya mevasining po'choqlari, uya joylashgan butaning barglari, konfet qog'ozlari, polietilen, paxta, ip, har xil rangli lattalar va boshqa uy-ro'zg'or chiqindilari, qushlarning patlari va uy hayvonlarining junlari xizmat qiladi. Qushlarning patlari, hayvonlarning junlari uya devorining ichki yuzasiga biriktiriladi. Ular birinchidan uyaga mustahkamlik bersa, ikkinchidan issiqlikni tutib turish uchun xizmat qiladi. Bu maqsadlarda ba'zan o'simliklarning lub tolalaridan ham foydalaniladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Uya tayyor bo'lgach urg'ochi qush tuxum qo'yishga kirishadi. Tuxumlarining rangi havorang bo'lib, uning po'chog'ida qo'ng'ir-binafsharang dog'lari bo'ladi. Massasi 5,4-7,5 g, o'rtacha - 7,07 g, uzunligi 28,0-31,2 mm, o'rtacha 29,7 mm, eni 18,2-20,1 mm, o'rtacha 19,5 mmni tashkil etadi (n=11) (1-jadval).

1-jadval

Qorashaqshaq tuxumlarining oologic ko'rsatkichlari

O'lchanadigan kattalik	Min	Max	M	$\pm m$	$\pm \sigma$	C	n
Uzunligi (mm)	28,0	31,2	29,7	0,34	1,38	3,56	11
Eni (mm)	18,2	20,1	19,5	0,42	1,44	4,71	11
Massasi (g)	5,4	7,5	7,07	0,24	0,78	6,12	11
Shakl indeksi (%)	64,8	69,6	67,7	0,62	0,53	0,89	11
Tuxum hajmi (ml)	29,7	31,6	30,8	4,79	0,97	0,64	11

Kuzatishlarimizga ko'ra uyadagi to'liq tuxumlar soni 5-6 ta bo'ladi. Biz kuzatishlar olib borgan uyalarning birida 6 ta, ikkinchisida 5 ta tuxum borligi aniqlandi. Nazorat ostidagi uyalarning birida birinchi tuxum 2025 yil 3 may kuni, ikkinchi uyada 7 may kuni qo'yildi.

Tuxumlarini bosib yotish jarayoni 13-15 kun davom etadi. Masalan, kuzatish ostidagi uyalarda 3 may kuni qo'yilgan tuxumdan 18 mayda, 7 may kuni qo'yilgan tuxumdan 20 mayda polaponlar ochib chiqdi. Tuxumlarini asosan urg'ochi qush bosib yotadi, erkagi esa uya atrofida doim sayrab u yoqdan-bu yoqqa uchib yuradi. Urg'ochisi uyadan uchib chiqqan vaqtda juda qisqa vaqt davomida, ya'ni 10-15 daqiqa erkagi tuxumlarini bosib yotadi.

Polaponlarning tuxumdan chiqishi eng erta tuxum qo'yilgan uyalarda aprel oyining ikkinchi yarmida kuzatiladi. A.I.Ivanov [2] Hisor tog' tizmasi janubiy etaklaridagi Kvak darasida, dengiz sathidan 1850 m balandlikda 21 aprelda qorashaqshaq polaponlarining tuxumdan chiqishini kuzatgan. Xuddi shu yerda shu muallif 12 iyulda 4 ta polponi bo'lgan uyani topgan. Bu uyadagi polaponlar uyani 23 iyulda tark etgan [2].

Bizning kuzatishlarimizga ko'ra nazoratimiz ostidagi uyalardan birida birinchi polapon 18 mayda, ikkinchi uyada esa 20 mayda tuxumdan chiqdi. Polaponlarning tuxumdan chiqishi taxminan 3 kun davom etdi. Polaponlarning tuxumdan chiqishi davomida tuxum po'choqlari katta yoshdagi qushlar tomonidan uyadan chiqarib tashlanadi.

Tuxumdan endigina chiqqan polaponning tanasi pushti-qizg'ish rangda, terisi yalang'och, tanasining orqa tomoni va boshida embrional patlari bo'ladi. Polaponlar tuxumdan nimjon, ko'zi va eshitish teshiklari yopiq holda chiqadi.

Bir kunlik polaponning og'iz bo'shligi och sarg'ish rangda, tumshug'ining atrofidagi hoshiyalari kir sarg'ish rangda, tumshuq osti kulrang-sarg'ish rangda, ko'zlari yopiq, ko'z soqqalari yirik va qoramtir rangda bo'ladi. Yelka oldi qismida embrional patlar joylashgan, tanasining orqa tomonidagi embrional patlarning uzunligi 10 mm gacha yetadi. Umurtqa





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



pog'onasi bo'ylab teri ostida pat qalamchalari sezilib turadi. Bunday pat qalamchalari qanotning yelka oldi va kaft qismlarida yaqqol namoyon bo'lib, ular bo'lajak birinchi va ikkinchi darajali qoquv patlari hisoblanadi. Sevkasi oqish-pushti, tirnoqlari oqish rangda. Bir kunlik polaponning og'irligi 6,8 g ni tashkil etadi (2-jadval).

2-jadval

Qorashaqshaq polaponlarining o'sish sur'ati (n=11)

Polaponning yoshi, kun hisobida	Og'irligi (g)	Tanasining uzunligi (mm)	Qanotining uzunligi (mm)	Sevkasi-ning uzunligi (mm)	Tumshug'ining uzunligi (mm)	I-darajali qoquv patlari-ning uzunligi (mm)	Dum patlari-ning uzunligi (mm)
1	6,8	52,3	19,5	10,5	3,6	-	-
3	11,2	61,1	25,5	12,5	4,5	-	-
5	15,4	76,2	39,3	14,0	5,1	5,5	2,5
7	27,6	89,3	48,7	16,0	8,8	20,6	11,3
9	35,0	103,8	55,2	20,5	10,5	47,8	24,5
11	58,5	118,4	72,6	26,0	12,2	62,3	31,4
13	69,7	142,1	86,4	32,5	13,5	87,6	48,2
15	60,3	150,2	96,7	37,5	14,1	102,3	56,8


Rivojlanishning uchinchi kunida embrional patlar oqaradi, tirnoqlarining asosi kulrang tusga kiradi, tanasining og'irligi 61,1ga yetadi. Bu vaqtda polaponning qanotining uzunligi 25,5 mm, sevkasining uzunligi o'rtacha 12,5 mm ni tashkil etadi (1-rasm).

Qorashaqshaq polaponlari massasining o'sishi rivojlanishning o'n uchinchi kunigacha jadal boradi. Bu yoshdagi polaponning og'irligi maksimum darajaga, ya'ni 69,7 g ga yetadi. Shundan so'ng ularning og'irligi kamayib boradi va uyadan uchib chiqishdan oldin ularning og'irligi 60,3 g ni tashkil etadi. Qorashaqshaq polaponlari tanasining o'sishi rivojlanishning 11 kunigacha deyarli bir maromda boradi. 13 kundan boshlab polaponlarning tana uzunligi keskin oshadi, aksincha massasi kamayadi (1-rasm).





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



1-rasm. Qorashaqshaq polaponlarining o'sish sur'ati.

O'n besh kunligida polaponlarning qanotining uzunligi 150,2 mm ni tashkil etadi. Qorashaqshaq polaponlari qanotining o'sishi rivojlanishning 15 kunigacha deyarli bir maromda boradi. O'n besh kunligida polaponlarning qanotining uzunligi 96,7 mm ni tashkil etadi. Qorashaqshaq polaponlari sevkasining o'sish sur'ati rivojlanishning yettinchi kunigacha nisbatan sekin boradi. Shundan so'ng o'sish sur'ati bir oz oshadi va 15 kunligida polaponlar sevkasining o'rtacha uzunligi 37,5 mm ni tashkil etadi.

Boshqa shaqshaqlar singari qorashaqshaq ozuqasining asosiy qismini hasharotlar tashkil etib, ularning orasida umurtqasiz hayvonlardan uzuntumshuqli qo'ng'izlar, qirqoyoqlar, qandalalar, kapalak qurtlari asosiy o'rinni egallaydi. O'simlik ozuqalaridan qorashaqshaqning ratsionida turli rezavor mevalar, jumladan maymunjon, gilos va tut mevalari uchraydi.

T.Z.Zaxidov va R.N.Meklenbursevlarning [1] ma'lumotlariga ko'ra qorashaqshaq ozuqani asosan yerdan qidirib topadi. O'zbekistonda uning ozuqasining asosiy qismini yomg'ir chuvalchaglari tashkil etadi. Bog'larda va o'rmonlarda u ko'p miqdorda mollyuskalar, qo'ng'izlar va kapalak qurtlarini terib yeydi. Kuzda va qishda mevalar: qoraqat, smorodina, chakanda, do'lana bilan oziqlanadi. Bog'larda ular unchalik zarar keltirmaydi, aksincha zararkunanda hasharotlarni qirib katta foyda keltiradi. Uyalarning turli balandliklarda joylashishi va har ikki jinsning faolligi shahar muhitida barqaror populyatsiya hamda tabiiy hasharotlar nazoratini ta'minlaydi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Tadqiqot natijalari ushbu turning buta va daraxtlar zararkunanda hasharotlarini qirishda yuqori salohiyatini tasdiqlab, kelgusida shahar bog'larida sun'iy uyalarni ko'paytirib bu yerlarga shaqshaqlarni jalb qilish va yashil hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik muvozanatni yanada barqarorlashtirish mumkinligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Захидов Т.З. Мекленберцев Р.Н. Природа и животный мир Средней Азии. - Ташкент, Ўқитувчи, 1969, Т. I. – 428 с.
2. Иванов А.И. Птицы Памира-Алая. – Л.: Наука, 1969. – 448 с.
3. Митропольский О.В., Бакаев С.Б., Кашкаров Р.Д., Кашкаров О.Р. Ўзбекистон кушлари бўйича қисқача маълумотнома. 130 та тур. Тошкент, Ўзбекистон кушларини муҳофаза қилиш жамияти, 2013. – 184 б.
4. Новиков Г.А. Полевые исследования экологии наземных животных. - М.: Советская наука, 1953. – 502 с.
5. Сагитов А.К. О гнездовании черного дрозда в Зарафшанской долине // Изв. АН Тадж. ССР № 23, 1960. – В. 45-54.
6. Шерназаров Э.Ш. ва бошқалар. Ўзбекистоннинг умуртқали ҳайвонлари: Умуртқали ҳайвонлар номларининг маълумотномаси. - Тошкент, Фан, 2006. – 172 б.

